



ETNOLOGIYALIK IZLANISHLARDA MUZEY EKSPONATLAR O'RNINI

Tavbaev Murat Bisenbaevich

Nukus shahri 40-o'rta maktabning tarix fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5574395>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-oktabr 2021

Ma'qullandi: 10-oktabr 2021

Chop etildi: 15-oktabr 2021

KALIT SO'ZLAR

Etnografiya, muzey, muzey eksponatlari, etnologiyalik izlanishlar, Islom karimov, Savetskiy muzeyi.

ANNOTATSIYA

Maqolada siz muzey haqida etnografiyalik izlanishlar va u yerda joylashgan eksponatlar haqida bilib olasiz, Qoraqalpoq xalqining milliy kiyim-kechaklari, muzeylarning yaratilish tarixi va bugungi kunda ularga qaratilayotgan e'tibor haqida tanishasiz va malumot olasiz.

Muzeylar ma'naviy va ma'rifiy ilm o'chog'i sifatida doim taraqqiyotda, rivojlanish va o'zgarishda. Ularning zaxiralarini doimo boyitib borish, to'plangan muzey ashyo va kolleksiyalarini kelajak avlodlarga busbutun holatda yetkazish, asrab-avaylash har birimizdan alohida mas'uliyat talab etadi. Ushbu dargohda o'z kasbining fidoiy insonlari faoliyat yuritadilar. Ular tomonidan yaratiladigan har bir ekspozitsiya o'zining maftunkorligi, tarixiy ahamiyati va judayam boy tarixiy yodgorliklarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi. Mustaqillik yillarida Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan tarixiy merosimizni o'zida saqlovchi muassasa hisoblangan muzeylar rivojiga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur sohaning tashkiliy-huquqiy asoslari yaratildi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq, Islom Karimov yurtimiz tarixini, ko'p yillik merosini o'zida mujassam etgan muzeylarni tashkil etish bo'yicha bir qator amaliy ishlarni amalga oshirdilar. Jumladan, 1994 yilda "O'zbekiston tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan O'zbekiston tarixi davlat muzeyi tashkil etildi. Natijada yurtimiz tarixini o'zida to'liq aks ettiruvchi 3 mingdan ortiq asori atiqalar va noyob eksponatlarga ega muzey tashkil topdi.

Muzey' (yunoncha: musion — muza larga bag'ishlangan joy) — tarixiy, moddiy va ma'naviy yodgorliklarni to'plash, saqlash, o'rganish va targ'ib qilish ishlarini amalga oshiruvchi ilmiy, ilmiy-ma'rifiy muassasa. Muzey xazinasida, asosan, moddiy va tasviriy narsalar, shuningdek, san'at



asarlari jamlanadi, shu bilan birga yozma manbalar (qadimdan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixiy qimmatga ega Zamonaviy muzeylarning ko'plariga tadqiqot va ta'lim-tarbiyaviy vazifalarning bir butunligi xos. Muzeyning o'ziga xos ilmiy ommaviy va tarbiyaviy shakllari ekspozitsiya ko'rgazmalar hisoblanadi. Zamonaviy ilmiy tasnifda muzey tur va sohalar bo'yicha farqlanadi. Ijtimoiy vazifasiga ko'ra ilmiy tadqiqot-ma'rifat (muzeyning asosiy qismini tashkil etadi, ba'zan ular xalq muzeyi, ommaviy muzey deb ham ataladi), tadqiqot (ilmiy tadqiqot institutlari qoshida o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'tovchi) va o'quv muzeyiga bo'linadi. Sohalar bo'yicha tarix, qishloq xo'jaligi, tabiatshunoslik, san'atshunoslik, adabiyot, texnikaga oid va boshqa muzeylarga bo'linadi. Shuningdek, muzeyning memorial muzeylar, majmua o'lkashunoslik kabi turlari bor.

Muzey katta ilmiy tadqiqiy va tarbiyaviy ishlarni olib boradi: to'plamlarni butlaydi va o'rganadi; ilmiy hujjatlarni tayyorlaydi, muzey ashyolarini saqlash va ta'mirlash tartibini yaratadi, monografiya, katalog, yo'l-ko'rsatkichlar nashr etadi; zamonaviy muzeyshunoslik ishlab chiqqan ilmiy usul va metodologiya asosida ekspozitsiyalarda ilmiy tashviqotlar olib boradi. Qoraqalpoqston muzeylarida xalqning milliy kiyim-kechaklari urf odatlari tasvirlangan eksponatlar saqlanmoqda. Etnologiyalik izlanishlar davomida ularning tarixi madaniyati haqida malumot to'plandi. Masalan:

Boy oiladan bo'lgan qizlar feruza toshlar va marjonlar qadalgan zarrin kumushdan tayyorlangan, aylana tiara yoki shlemga o'xshash do'ppilarni kiyishgan. Kelinlar to'y kuni *saukele* bosh kiyimi ostidan tiarani ohirgi marta kiyishgan. Libosning "dubulg'a

pardasi" va "quloqchinlari" "qirollik tamg'asi" to'g'nog'ichi bilan, hamda, zarrin kumush, marjon va feruzadan tayyorlangan "ovchi qush" tumori bilan bezatilgan. Bundan tashqari, ular marjon munchoqlari va zargarlik tizmalari bilan qoplangan Bayram libosi yo'g'on yengli *jegde* keng choponi bilan mos tushgan. Yosh ayollar kashta yoqali, qizil ipakdan qilingan *jipek-jigde* ni kiyishgan; yoshi katta ayollar esa to'liq kashta bilan qoplangan oq paxtadan tayyorlangan *kesteli-jegde* ni kiyishgan.

. I.V.Savitskiy nomidagi Qoraqalpog'iston davlat san'at muzeyi - respublikadagi yirik muzeylardan; Nukus shahrida 1966 yilda tashkil topgan, 1984 yildan N.V.Savitskiy nomi bilan ataladi. Muzeyga I.Savitskiyning sa'y-harakati va u to'plagan qoraqalpoq xalq amaliy san'ati asarlari negizida asos solingan. Muzeyning umumiy maydoni 6,9 ming kv.m. Muzey xalq amaliy san'ati, qadimiy va o'rta asrlar Xorazm san'ati, 1920-30-yillar o'zbek va rus tasviriy san'ati, qoraqalpoq zamonaviy rang-tasviri va haykaltaroshligi, ilmiy-ma'rifiy bo'limlar, kutubxona (10 ming dona asar), fond hamda ta'mirlash usta-xonasiga ega. Fondida 85 mingdan ortiq eksponat mavjud (2004).

Muzey fondida 1920- 30-yillarda avangard rassomlar yaratgan asarlar to'plangan. Qoraqalpoq xalq ustalari tomonidan yaratilgan zargarlik, yog'och o'ymakorligi, kashtado'zlik, to'qimachilik (ayniqsa, o'tov jihozlari) va boshqa asarlar amaliy san'at bo'limida jamlangan.. Shuningdek, 1920-30-yillarda faol ijod etgan rus rassomlari A.Shevchenko, R.Falk, V.Muxina, I.Grabar asarlari bilan bir qatorda ijodi deyarli o'rganilmagan. R.Mazel, K.Redko, A.Safronov va boshqaning asarlari ham qo'yilgan.



Muzey eksponatlari monografiya (etyud, chizgidan tortib to yetuk asarlar) tartibida to'plangani bilan ham qimmatlidir. Yana muzeyning o'ziga xosligi eksponatlarning zich joylanishi, ekspozitsiyalarda to'plamni to'laqonli namoyishiga erishganidadir. Muzey san'at asarlarini to'plash, targ'ib etish, kataloglar chop ko'rgazmalar tashkil qilish bilan shug'ullanadi.

Dastlab muzey va ular haqidagi tavsiflar, shuningdek, muzeyshunoslik haqidagi nazariy asarlar ham shu davrda paydo bo'ldi. Florensiya (L. Medichi, 15-asr), Rim (Vatikan muzeyi, 16-asr), Drezden (Avgust Saksonskiy, 16-asr) va boshqa joylardagi antik davr yodgorliklari to'plamlari shu davrga mansub. 17—18-asrlarda keyinchalik ko'plari davlat milliy muzey negizini tashkil qilgan xususiy to'plamlar (tarixiy, arxeologik, tabiatshunoslik, san'atshunoslik) shakllandi.

O'zbekistonda muzey 19-asrning 2-yarmida tashkil etila boshlagan. 20-asr boshida O'zbekistonda faqat 3 muzey — Toshkent o'lkashunoslik muzeyi (1876, hozirda O'zbekiston tarixi muzeyi), Samarqand xalq muzeyi (1896, hozirgi Akmal Ikromov nomidagi O'zbekiston xalqlari madaniyati va san'ati tarixi muzeyi), Farg'ona xalq muzeyi (1899, hozirgi Farg'ona viloyat o'lkashunoslik muzeyi) bor edi. Ularning to'plamlari kam, ekspozitsiyalarining ko'pi tasodifiy materiallardan tashkil toptan. 20-asr 20-yillaridan turli sohadagi muzey tashkil etila boshladi. Muzeylar va madaniyat yodgorliklari davlat ixtiyoriga o'tkazilib, muhofaza qilina boshlandi. Ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilib, muzey uchun kolleksiyalar to'plash ishi yo'lga qo'yildi, ko'plab muzey tashkil etildi. Hozir O'zbekistondagi muzeyning asosiy qismi O'zbekiston madaniyat ishlari

vazirligi qaramog'ida. Yirik muzeylar: O'zbekiston tarixi muzeyi, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, O'zbekiston san'at muzeyi (1918), Akmal Ikromov nomidagi O'zbekiston xalqlari madaniyati va san'ati tarixi muzeyi, O'zbekiston tabiat muzeyi (1876) va boshqalar. Respublikaning deyarli barcha viloyatlarida o'lkashunoslik muzeyi, jahon ahamiyatiga molik memorial muzey bor.

. Har qanday davlat taraqqiyot sari intilar ekan, doimo tarixga nazar tashlab, mavjud urf-odatlar, an'analar va qadimiy yodgorliklarni o'rganishga va saqlashga intilishi tabiiy. Ayniqsa bu borada muzeylarning o'rni beqiyosdir. Chunki muzeylar o'tmishdan kelgan tarixiy madaniyat, ma'rifat, tabiat yodgorliklarining yaxlit tizimiga solingan yig'indisi bo'lib amaldagi qonun-qoidaga muvofiq ravishda saqlanadi va namoyish qilinadi.

Mamlakatimizning mustaqillikka erishishi iqtisodiy va siyosiy hayotning barcha jabhasida bo'lgani kabi madaniy sohada ham tub burilish yasadi. Jumladan, milliy an'ana hamda qadriyatlarimizni tiklash, boy merosimizni chuqur o'rganish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etishga katta e'tibor qaratila boshlandi.

Bugungi kunda mamlakatimizda turli yo'nalishda 1200 dan ortiq davlat va nodavlat muzey faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu madaniyat maskanlari ajdodlarimizdan bizga meros bo'lgan boyligni kelajak avlodga yetkazib beradigan ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy xazina bo'lib, u yillar davomida boyitilib, tarixdan meros bo'lgan ashyolar, insoniyat ijodi mahsuli sifatida yaratilgan san'at asarlari saralanib,



muzeylardan joy olib, umuminsoniy boylikka aylantirilmoqda.

Bugungi kunda muzeylarimizga katta ahamiyat qaratilmoqda, Prezidentimiz tashabbusi bilan 10 yillik davlat dasturini qabul qilinganligi, ya'ni 2017-2027-yillar davomida yurtimizdagi barcha muzeylarni rekonstruksiya qilish, qayta ta'mirlash va ularning moddiy texnik bazasini mustahkamlash aynan madaniyat sohasidagi bugungi kun dolzarb masalalaridan biri edi. Yuksak e'tibor tufayli ko'plab muzeylar bunyod etildi,

. Ekspонатlar ajdodlarimizning ulkan salohiyatidan so'zlaydi. O'zbekiston tarixi davlat muzeyidagi osori-atiqalar esa o'zbek davlatchiligi tarixining naqadar qadimiyligi va yuksakligi to'g'risida so'zlaydi, qolaversa, har bir davrga oid ashyolar betakrorligi bilan kishida hayrat tuyg'usini uyg'otadi. Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi ko'rgazmalari Vatanimiz mustaqilligi yo'lida qurbon bo'lgan fidoyi farzandlar to'g'risida ma'lumot beradi. Bu muzey yosh avlod ongida istiqloq ne'matining naqadar bebaho va yuksak ekanligi, uning qadriga yetish kerakligi haqida yana-da teran fikr uyg'otadi. Termiz arxeologiya muzeyida saqlanayotgan arxeologik topilmalar ham noyobligi, ilmiy tadqiqotlar uchun manba bo'la olishi bilan qadrlidir. Olimpiya shonshuhrati muzeyi istiqloq yillarida mamlakatimiz sportchilarining eng nufuzli xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritgan ulkan muvaffaqiyatlari to'g'risida keng ma'lumot yetkazadi. O'zbekiston xalq amaliy san'ati, O'zbekiston davlat san'at muzeylaridagi ekspонатlar xalqimizning boy hunarmandchilik xazinasini, o'ziga xos tasviriy san'at asarlari, ularning janrlarini tarannum etadi. Qadimiy shaharlarimizdagi ochiq osmon ostidagi muzeylar esa dunyoning turli tomonlaridan kelayotgan

sayyohlarni hayratda qoldirmoqda va ularning oqimi yildan-yilga xalqaro darajada muzeylarimizga bo'lgan qiziqish ortib boryapti.

Fondiarni komplektlash muzey faoliyatining asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, jamiyat taraqqiyotini hujjatlashtirishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Fondiarni komplektlash avval ashyolarni yig'ish deb nomlangan. Hozirgi termin bilan qadimiy atama o'rtasida katta farq bor. Qadimgi atama muzey ashyolarini yig'ish, muzey fondini ko'paytirib borishnigina nazarda tutsa, muzey fondlarini komplektlashda undan tashqari fondni ilmiy tashkil etish, predmetlarni o'rganish, ularni sistemalash ishlari ham olib boradi. Muzey fondlarini komplektlash asosan 2 yo'nalishda olib boriladi: 1. Tipologik (turdoq) kolleksiya. Unda muzey predmetlari tipologik belgilariga ko'ra muzey fondlari bo'limlariga qabul qilinadi. 2. Tematik (mavzuviy) ko'rgazmada turli turdagi predmetlar guruhi biografiyasi jamiyat hayotidagi biror hodisaga bog'liqligiga, ishlab chiqarish shakliga, madaniy hayotni aks ettirishiga qarab tashkil etiladi. Uni tashkil etish tematik, xronologik tamoyil asosida amalga oshiriladi. Tarix sohasidagi muzeylardagi fondiarni komplektlash ishida muzeyshunoslar, tarixchilar, arxeologlar, etnograflar, moddiy va ma'naviy madaniyat tarixi bilan shug'ullanuvchilar, san'atshunoslar, adabiyotshunoslar ham qatnashadi. Komplektlash jarayonining o'zi bir necha bosqichlarga bo'linadi:

1. Tarix yoki hozirgi kunga oid faktlar ichidan muzey qiziqishiga moligini ajratib olish.
2. Predmetning qimmatini fondni komplektlash maqsadi yuzasidan o'rganish va aniqlash.
3. Muzey ahamiyatiga molik predmetni yakuniy ekspertdan o'tkazish.
- 4.



Predmetni muzey predmetlari safiga qabul qilish. Fondiarni komplektlash manbalari har xil bo'lib, u tasodifiy topilmalardan rejalashtirilgan yo'naltirilgan tadqiqotlarga o'z ichiga oladi. Muzey o'z faoliyati davomida kolleksiya to'plovchilar, alohida predmetlarning egalari, ilmiy tashkilotlar (ilmiy kolleksiya to'plovchi, lekin saqlovchi emas. Misol uchun: tarix fakultetlarining arxeologiya va etnografiya kafedralari), amaliy san'at ustalari, musavvirlar, fotograflar, nashriyotlar, kitob palatalari, bukinistik va Muzey ishi-jamoatchilik faoliyati, tarbiya va madaniyati bilan aloqada bo'lib turadigan o'ziga xos bir qismi sifatida jamiyat taraqqiyotining umumiy tendentsiyalardan chetta qolmagan. Insonning har tomonlama rivojlantirish uchun muxim ahamiyatga ega bo'lgan muzey ishi darajasini o'stirishda to'plagan tajribani nazariy tushinmasdan, xarakteristikasini, qoidalarni o'rganmasdan turib erishib bo'lmaydi. Muzey ishi muammolarini umumlashtiruvchi, muzey amaliyotida foydalanadigan va maxsus adabiyotlarda o'z aksini topgan bilimlar majmuasi - muzeologiya yoki muzeyshunoslik deyiladi. Bu termin XIX asrning ikkinchi yarmida paydo bo'lganligiga qaramasdan juda ko'plab jahon kitoblarida qo'llanilib borgan. Muzeyshunoslikning nazariy sistemasi tushuncha va metodlari XVI asrdan boshlab shakllana boshlagan. Lekin fan sifatida so'ngi o'n yilliklarda shakllandi. Muzeyshunoslik - ijtimoiy axborotni saqlash vositasida anglash va etkazish jarayonini o'rganuvchi ijtimoiy fandır. Har qanday fan tadqiqot ob'ekti va predmetiga ega bo'ladi. Muzeyshunoslikning ob'ekti- bu muzey ijtimoiy hodisa sifatidagi muzey ishidir. Lekin bu ob'ekt tarix, xususan madaniyat

tarixini san'atshunoslik, sotsiologiya va boshqa fanlar tomonidan o'rganilishi malum. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, dunyodagi ilk muzey Museon deb nomlanib, o'quv maskani ko'rinishida bo'lgan va taxminan eramizdan avvalgi 290-yili Aleksandriyada Ptolomey-1 tomonidan tashkil etilgan. Uning tarkibida turar joylar, ovqatlanish hamda mutolaa xonalari, o'simlik va hayvonot bog'lari, rasadxona hamda kutubxona ham bo'lgan. Keyinchalik esa, tibbiyot va astronomiyaga oid jihozlar, jonivorlarning qotirilgan nusxalari va shu kabi o'quv jarayonlarida asqatadigan turli namoyish qurollari ham muzeydan o'rin ola boshlagan.

Muzeylar dastlab badiiy asarlar majmuiga, keyin esa moddiy va ma'naviy ma'rifiy yodgorliklarni yig'uvchi va saqlovchi muassasaga aylangan. O'zining ulkan tarixiy obidalari bilan nafaqat Yevropa va Osiyoda, balki butun dunyoga mashhur bo'lgan Italiya davlatida ham XV asrga kelib, mavjud yodgorliklarni muntazam ravishda to'plash ishlari avjiga chiqqan.

XIX asrga kelib, eng katta muzeylar AQSH, Angliya, Shvetsiya, Yaponiya, Hindiston va Rossiyada barpo etildi. Shular qatorida 1852-yili Ermitaj, 1873-yili Moskvadagi Tarix muzeyi, 1892-yili Tretyakov galereyasining tashkil etilgani so'zimiz dalilidir.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lgan muzeylar yosh avlodga xalqimizning qadimiy va boy tarixi, o'ziga xos madaniyati, istiqloq g'oyalarini yana-da teran anglashga ko'maklashmoqda. Ko'plab yangi muzeylar yosh avlodni tariximiz, moddiy va madaniy merosimizni naqadar chuqur ildizga egaligini singdirgan holda, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat



tuyg'ulari bilan tarbiyalangan mutaxassis bo'lib yetishmoqdalar.

Muzeylar ma'naviy va ma'rifiy ilm o'chog'i sifatida doim taraqqiyotda, rivojlanish va o'zgarishda. Ularning zaxiralarini doimo boyitib borish, to'plangan muzey ashyo va kolleksiyalarini kelajak avlodlarga bus-butun holatda yetkazish, asrab-avaylash har birimizdan alohida mas'uliyat talab etadi.

Ushbu dargohda o'z kasbining fidoiy insonlari faoliyat yuritadilar. Ular tomonidan yaratiladigan har bir ekspozitsiya o'zining maftunkorligi, tarixiy ahamiyati va judayam boy tarixiy yodgorliklarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan ahamiyatli hisoblanadi

References:

1. B.Boltoyev."Muzeyshunoslik"
2. P.Алмеев ."Музеи Узбекистана и социально –культурные перспективы ихразвития".
3. Н .Садикова ."Музейное дело в Узбекистане".1977-года
4. ziyo.net
5. A.Mavrulov. Z.Saidboboyev."Muzeyshunoslik haqida qo'llanma".Turon-iqbol, 2018-yil